qishga qa-ratish kerak. Ammo bu o‘tmishga qaytishni anglatmaydi. Bular milliy madaniyatni ijodiy o‘zgartirishni amalga oshiradigan va o‘quvchilarni zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarga moslashtiradigan metodlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunga kelib ‚O‘zbekistonda har bir yosh avlod vakilini ona xalqining qadriyatlari va an’analarining tashuvchisi sifatida shakllantirish, uning kamolotiga ko‘maklashish respublika ta’lim muassasalarining eng muhim vazifasi hisoblanadi [3;98-b.].

Bugungi kunda o‘quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Bolaning xalq amaliy san’atining madaniy ahamiyati va xususiyatlari haqidagi g‘oyalarini shakllantirish.

2. “Texnologiya” fani tarkibida xalq hunarmandchiligi namunalari bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularni chuqurlashtirilgan tartibda tashkil etish.

3. Badiiy hunarmandchilikning ayrim turlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida ahamiyat qaratish.

4. Xalq hunarmandchiligining obrazli motivlarini namoyish qilish, bu orqali o‘quvchilarda badiiy tasvirni yaratish qobiliyatibi rivojlantirish.

5. Ijodkorlikning turli shakllari orqali bolaning o‘zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirish [5; 14-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xalq hunarmandchiligi asosida maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish holatini o‘rganar ekanmiz, biz ushbu faoliyat turining samarali bo‘lishi bevosita o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga bevosita aloqador degan xulosaga keldik. Umuman aytganda, o‘quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarini rivojlantirish ularni kelgusida mehnatsevar, o‘z xalqning tarixi, moddiy-ma’naviy qadriyatlarini hurmat qiluvchi, ularni yanada rivojlantirishga harakat qiluvchi shaxs bo‘lib shakllanishlarida poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10–11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 30.12.2021. Lex.uz.

(2). Duncker K. Zur Psychologie des produktiven Denkens. Berlin, Springer, 1935.

(3). Алексеев Н.Г, Юдин Э.Г. О психологических методах изучения творчества. Проблемы научного творчества в современной психологии. М., 1971.

(4). Грузенберг, Сергей. Книжные знаки. М., “Художественная печать”, 1924, 21 с.

(5). Львова Ю.Л. Творческая лаборатория учителя. Из опыта работы. 2-е изд., перераб. и доп., М., “Просвещение”, 1985, 158 с.

Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna (Urganch Ranch Texnologiya universiteti “Pedagogika va aniq fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

BO‘LG‘USI O‘QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING USUL VA VOSITALARI

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lg‘usi o‘qituvchi faoliyatidagi innovatsion yondashuvlar va ularning usul vositalari haqida fikr yuritilgan. Bo‘lg‘usi o‘qituvchi innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan biri bo‘lgan ijodkorlik, yangiliklarni o‘zlashtirib borish bilan birga, ularni o‘z faoliyatida qo‘llashi va pedagogik jamoa o‘rtasida targ‘ib qila olishi nazarda tutiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi, faoliyat, innovatsiya, innovatsion faoliyat, pedagogik mahorat, kasbiy mahorat, muomala madaniyati.*

Худайберганова Наргиса Курбанбаевна (Ургенч Ранч технологический университет, кафедра «Педагогика и точные науки», старший преподаватель)

ОРГАНИЗАЦИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ МЕТОДЫ И ИНСТРУМЕНТЫ

Аннатация. *В статье рассматриваются инновационные подходы к работе будущего учителя и их методы. Креативность является одной из основных характеристик инновационной деятельности будущего учителя при изучении нового и использовании его в своей работе. Предполагается, что он умеет это применять и пропагандировать в педагогической среде.*

Ключевые слова: *педагог, деятельность, инновация, инновационная деятельность, педагогическое мастерство, профессиональное мастерство, культура обращения.*

Khudayberganova Nargisa Kurbanbaevna (Urgench Ranch Technological University "Pedagogy and Exact Sciences" senior lecturer of the department)

ORGANIZING INNOVATIVE ACTIVITIES OF AFUTURE TEACHER. METHODS AND TOOLS

Annotation*.The article discusses innovative approaches to the work of future teachers and their methods. Creativity is one of the main characteristics of the innovative activity of a future teacher; when learning something new and using it in his work, it is assumed that he knows how to apply and promote it. among the teaching staff.*

Keywords: *teacher, activity, innovation, innovative activity, pedagogical skills, professional skills, culture of treatment.*

Kirish (Introduction). Bugun O'zbekistonning yangi qiyofasini kashf qilish, bevosita ta'lim jarayonining amalga oshishi bilan bog'liq ekanligini tushunishimiz, ta'lim jarayoniga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini taqozo etadi. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" deb alohida ta'kidlashi ta'lim tizimini har qachongidan ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi (1). Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion faoliyat muhim o'rin tutadi. Bulg'usi o'qituvchi, ya'ni o'qituvchilarning kelajagi, o'zining professional faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishlari kerak. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning qiziqishini oshirishi, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishi va ta'limning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlili (Literature reviw). Bunda ko'plab olimlar zamonaviy ta'lim metodlari, innovatsion texnologiyalar va pedagogik usullar bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, A. Abdullayev "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" asarida innovatsion ta'lim metodlari, ularning samaradorligi va o'quvchilarning faolligini oshirish usullari haqida so'z boradi. Rajabov Sh."Pedagogik innovatsiyalar", Pedagogikadagi inovatsiyalarning rivojlanishi, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati haqida, Saidov F."Ta'limda informatsion texnologiyalarni joriy etish" Sharipov A. "Kritik fikrlash va ijodiy yondashuv". "O'quvchilarda kritik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun pedagogik usullar". Nasimov R. "Innovatsion pedagogika". Innovatsion pedagogik yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliyotdagi ifodalanishi kabi jihatlari o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasiga (Research Methodology). Tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilab olishni nazarda tutadi, ular:

– innovatsion faoliyatning mohiyatini aniqlashi;

– o'qituvchilar innovatsion metodlarni qanday qo'llashi;

–innovatsion vositalarni tahlil qilish kabilarni nazarda tutadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilishni talab etadi. Shu o'rinda o'qituvchining faoliyatida innovatsiya muhim o'rin egallaydi. Mazkur vaziyatda bo'lg'usi o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorlash vazifasi yuzaga keladi. Bo'lg'usi o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda duch kelinadigan qiyinchiliklarni hisobga olish va ularni bartaraf etish lozim. "O'qituvchining innovatsion faoliyati haqida gapirganda, bu faoliyatning ilmiy-metodik o'ziga xosligi haqidagi savol paydo bo'ladi. Bu faoliyatning imkoniyatlari ta'lim tizimi ko'lamida innovatsion g'oyalar, loyihalar, texnologiyalarni joriy qilishda va shaxsni rivojlantirishda namoyon bo'ladi" [5;174–176-b.]. Bu esa muayyan faoliyat jarayonida quyidagi imkoniyatlarni o'zida jamlaydi:

–o'qituvchi o'z sohasiga oid yangiliklardan xabardor bo'lishi;

–o'zining faoliyatida yangiliklarni samarali qo'llay olishi;

–o'qituvchining jodkorlik va kommunikativ qobiliyatini rivojlanganligi.

O'qituvchilarning yangilikni o'zlashtirishga tayyorgarligining mezonlari esa o'qituvchi motivatsiyasi, malaka tayyorgarligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish borasidagi bilim va malakalari, innovatsiya yo'lidagi to'siqlarni bartaraf eta olish mahorati bilan belgilanadi. "Innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida maqsad aniq, puxta belgilanib, bo'lg'usi o'qituvchining oldingi faoliyatini tashxislash asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq" [3;108-b.].

Bo'lg'usi o'qituvchilarda innovatsion faoliyat shakllanishida quyidagi omillar asosiy ekanligi ma'lum bo'ladi:

–yangilikka nisbatan ichki ehtiyoj va qiziqishning yuzaga kelishi;

–o'qituvchilarda yangilik kiritish uchun pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilishda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi;

–o‘qituvchi pedagogik faoliyatida yangilikni qo‘llay olish mahoratiga egaligi;

–o‘qituvchidagi ijodkorlik va izlanuvchanlik, o‘quvchilar va pedagogik jamoa orasida ko‘tarinki kayfiyatni yaratish sifatlarining mavjudligi.

Shu o‘rinda innovatsion faoliyat natijasi nimada ko‘rinadi, uning belgilari qanday? degan savol tug‘ilishi, tabiiy. Ya’ni, innovatsion dasturlar qanday ishlanadi? Yangi g‘oyalarni rivojlantirish va yaratishda qanday metodlardan foydalanish lozim? degan savollarga ham javob berish lozim.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bu shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodlar va vositalar orqali o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning faolligi, ijodiy qobiliyatlari va mustaqilliklari oshadi.

–zamon talablariga mos yangiliklarni tatbiq qilish, o‘qitish samaradorligini oshishiga hissa qo‘shadi. Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning innovatsiyalardan foydalanishi kasbiy faoliyatning sifatini ta’minlaydi. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

–muayyan faoliyatni maqsadini aniqlashda;

–turli vaziyatlarni to‘g‘ri baholab, tezkorlik bilan xulosaga kelishida;

–o‘z sohasiga kreativ yondashishida;

–mutaxassislik malakasini puxta egallaganligida.

O‘qituvchi foaliyatida innovatsialarni tatbiq eta olish ko‘nikmasini shakllanganlik darajasi muayyan talablarga mos bo‘lishi lozim, bular:

– har bir o‘qituvchi innovatsion-pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish mahoratini yaxshi egallashi;

–o‘qituvchi shaxsi kerakli metodlarni o‘rinli rejalashtirishi va uni amalda samarali qo‘llay olishi ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;

–o‘qituvchidagi ijodkorlik, izlanuvchanlik, o‘quvchilar va pedagogik jamoasi orasida ko‘tarinki kayfiyatni yarata olish sifatlari mavjudligida;

–mualliflik konsepsiyalarini yarata olish mahoratiga egaligi kabilarda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining ilmiy-metodik ta’minlanishi muhim ahamiyatga ega. “Pedagogik jamoaning innovatsion salohiyati ta’lim tizimi ko‘lamida innovatsion g‘oyalar, loyihalar, texnologiyalarni joriy qilishda va ularni rivojlantirishda namoyon bo‘ladi” [2;158-b.].

O‘qituvchining yangilikni o‘zlashtirib olishga tayyorligi o‘ziga xos mezonlarga ega bo‘lib, ular quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

– o‘qituvchining yangilik haqidagi ma’lumotlarga egaligi;

– o‘qituvchining malakaviy tayyorgarligi;

– sohaga oid bilim ko‘nikmaga ega bo‘lishi;

–innovatsiyalarni qo‘llashga to‘sqinlik qiladigan muammolarni hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kabilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion Recommendations). Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa va takliflarimiz, bayon etilgan mulohazalarga asoslanib, quyidagi xulosaga kelish mumkin. Innovatsion faoliyat bir necha bosqichlarda tarkib topadigan faoliyat bo‘lib, o‘zining nazariy va amaliy asoslariga ega bo‘lgan pedagogik faoliyatning alohida bosqichi. Innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagoglar psixologik tayyorgarligini oshirish, ularning shaxsiy imkoniyatlarini namoyish etishga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu tadbirlar malaka oshirish jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Ta’lim oluvchida ta’lim va bilimga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ishlashni, o‘z kasbiga hurmat va iftixor, insoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirish innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi asosiy omil hisoblanadi. Innovatsion faoliyat deganda, yangi g‘oyalar, yondashuvlar amalga oshirish jarayoni tushuniladi. Bu faoliyat tadqiqot va rivojlantirish yangi texnologiyalarni joriy etish, mavjudlarini yaxshilash yoki bozor talablariga mos ravishda yangi yechimlar taklif etishni o‘z ichiga oladi. Innovatsion faoliyat, shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va jamiyatning turli sohalarida ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi. Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muhim jarayon bo‘lib, bu ularning pedagogik malakalarini oshirish va zamonaviy ta’lim tizimiga moslashishlariga yordam beradi.

Bugungi kunda bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash o‘qitishning sifat va samaradorligini oshiradi. Bunday sharoitda faqat bu borada ma’lum tajribaga ega, yangilikka intiluvchan o‘qituvchilar misolida kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu bilan birga, bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda jamoadagi psixologik muhit, jamoa a’zolarining qanchalik darajada dunyo ta’lim bozoridagi yangiliklardan xabardor bo‘lishi masalaning muhim tomoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Sh.M.Mirziyoyev. “Qonun ustunorligi va inson manfaatlarinn ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. “Xalq so‘zi”, 2016-yil 8-dekabr, 243-son.

(2). Ангеловский К. Учителя и инновации. Книга для учителя. Перевод с македонского В.П.Диденко. М., “Просвещение”, 1991, с. 158.

(3). Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. Рига, НПЦ Эксперимент, 1995, 108 с.

(4). Леонтьев А.Н. Наука и человечество. 2 т., М., “Знания”, 1963, 366 с.

(5). U.A.Sapayev. Innovatsion ta’lim muhitini shakllantrishda texnik oily ta’lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyasi. “Ilm sarchashmalari”, 2022, 9-son, 174–176-betlar.

Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna (Urganch Innovatsion universiteti, “Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi; UrDU mustaqil tadqiqotchisi; e-mail: feruzahonkutlieva@gmail.com)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini o‘rganish, shuningdek, ushbu jarayonga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashdir. Maqola, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun o‘z-o‘zini rivojlantirishning zarurligi va uning o‘quvchi ta’limi sifatini oshirishdagi o‘rni haqida chuqur tahliliy yondashuvni taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, kompetensiya, kasbiy mahorat, takomillashtirish, ilmiy va pedagogik asoslar, professional.*

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ САМООБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Целью данной статьи является изучение научно-педагогических основ повышения компетентности саморазвития учителей начальных классов, а также определение факторов, влияющих на этот процесс. В статье предлагается углубленный аналитический подход к вопросу о необходимости саморазвития учителя начальных классов и его роли в повышении качества образования учащихся.*

Ключевые слова: *профессиональное саморазвитие, компетентность, профессиональные навыки, совершенствование, научно-педагогические основы, профессионал.*

SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF SELF-EDUCATIONAL COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation. *The purpose of this article is to study the scientific and pedagogical foundations of increasing the self-development competence of primary school teachers, as well as to determine the factors influencing this process. The article offers an in-depth analytical approach to the issue of the need for self-development of a primary school teacher and his role in improving the quality of student education.*

Keywords: *professional self-development, competence, professional skills, improvement, scientific and pedagogical foundations, professional.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchilardan nafaqat o‘quvchilarga bilim berish qobiliyatini, balki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy mahoratiga yuqori o‘sish talabini ham qo‘yadi. Bunday o‘sishning asosiy jihatlaridan biri bu o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirishdir. O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirish kasbiy o‘sishning ajralmas qismiga aylanadi va o‘qituvchilarning yangi bilim, texnologiyalarni mustaqil izlash, tushunish, qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu kompetensiyani rivojlantirishga nafaqat uslubiy yondashuvlarni, balki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida uni shakllantirishning amaliy jihatlarini ham ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z ustida ishlash tartibini amalga oshirish zaruratining asosiy sababi, zamonaviy ta’lim tizimi ideal sifatida bo‘lishini ta’minlashdir. Bu esa bizdan o‘qituvchilarni professional darajada tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, ular, keyinchalik, bolalarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga to‘g‘ri yo‘naltira oladilar, chunki ular bolaning ichki, yashirin iste’dodlarini faollashtirishga yordam berishlari mumkin. Har yili o‘quvchilar bilan to‘g‘ri ishlashni aniqlaydigan ko‘proq yangi usullar paydo bo‘lgan-